

QISHLOQ XO‘JALIGIDA YER RESURSLARIDAN BARQAROR FOYDALANISHDA SUG‘ORILADIGAN YERLAR MAYDONINI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI (QO‘SHKO‘PIR TUMANI MISOLIDA)

Yovbosarov Bekmurod Bahodir o‘g‘li, mutaxassis

<https://orcid.org/0000-0002-3210-6489>

Raximov Ibrat Sultonboy o‘g‘li, bo‘lim boshlig‘i

<https://orcid.org/0009-0009-4145-9153>

Abdullayev Suxrob Madraxim o‘g‘li, mutaxassis

<https://orcid.org/0009-0008-9194-6534>

O‘zdavyerloyiha DILI Xorazm bo‘linmasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan barqaror foydalanish, sug‘oriladigan yerlar maydonini kengaytirish istiqbollari va 2025–2040-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda ilgari foydalanishdan chiqib ketgan bo‘z yerlar, zaxira yerlar va rekultivatsiyalangan maydonlarni qishloq xo‘jaligi aylanmasiga jalb qilish yo‘llari, shuningdek, agrotexnik va meliorativ tadbirlarni joriy etish imkoniyatlari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: yer fondi, yer resurslari, barqaror foydalanish, sug‘oriladigan yerlar, bo‘z yerlar

Abstract. This article scientifically analyzes sustainable use of land resources in agriculture, prospects for expanding irrigated land areas, and forecast indicators for 2025–2040. The study examines ways to incorporate previously unused barren lands, reserve lands, and reclaimed areas into agricultural circulation, as well as the possibility of implementing agro-technical and melioration measures.

Keywords: land fund, land resources, sustainable use, irrigated lands, barren lands

Аннотация. В данной статье проводится научный анализ устойчивого использования земельных ресурсов в сельском хозяйстве, перспектив расширения орошаемых земель и прогнозных показателей на 2025–2040 годы. Исследуются способы вовлечения в сельскохозяйственный оборот ранее неиспользуемых пустующих земель, резервных и рекультивированных участков, а также возможности внедрения агротехнических и мелиоративных мероприятий.

Ключевые слова: земельный фонд, земельные ресурсы, устойчивое использование, орошаемые земли, пустующие земли

Kirish: Bugungi kunda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash hamda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalalari global va milliy miqyosda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Aholi sonining o‘sib borishi, iqlim o‘zgarishi jarayonlarining kuchayishi va suv resurslarining cheklanganligi sharoitida yer resurslaridan samarali foydalanish, ayniqsa sug‘oriladigan yerlar maydonini kengaytirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qayta qishloq xo‘jaligi aylanmasiga jalb etish, yer unumdorligini oshirish va meliorativ holatini yaxshilash ilmiy asoslangan yondashuvlarni talab etadi.

2025–2040-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ilgari foydalanishdan chiqib ketgan yerlarni qayta o‘zlashtirish, meliorativ va agrotexnik tadbirlarni joriy etish orqali ularning qishloq xo‘jaligi aylanmasiga jalb etish imkoniyatlari baholanadi. Olingan natijalar hududiy yer resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.

Materiallar va uslublar. Tadqiqot objekti sifatida Qo‘shko‘pir tumani yer fondi va sug‘oriladigan yerlar tizimi tanlandi. Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar qo‘llanildi:

Xatlov va statistik tahlil: Yerlarni xatlovdan o‘tkazish materiallari va hududiy yer balanslari o‘rganildi, mavjud sug‘oriladigan va bo‘z yerlar, shuningdek zaxira yerlar aniqlab olinadi.


Prognozlash usullari: 2025–2040-yillar davomida yer fondining o‘zgarishi, yangi yerlarni qishloq xo‘jaligiga jalb qilish istiqbollari bosqichma-bosqich prognoz qilinadi.

Taqqoslash va tahliliy metodlar: Yer resurslaridan samarali foydalanishning turli variantlari tahlil qilindi va samaradorlik ko‘rsatkichlari hisoblanadi.

Bu metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi tuman yer fondidan barqaror foydalanish strategiyasini ishlab chiqishda ilmiy asos yaratadi.

Natijalar va munozara Tadqiqot jarayonida yer resurslarini materiallari va hududiy yer balanslari ma‘lumotlari asosida kompleks tahlil qilindi. 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, Qo‘shko‘pir tumanining umumiy yer maydoni 53 929 gektarni tashkil etishi aniqlandi. O‘tkazilgan statistik tahlil natijasida tuman yer fondining toifalar bo‘yicha tarkibi ko‘rib chiqildi, Unga ko‘ra, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar 46 167 gektarni (umumiy maydonning 85,6 foizini) tashkil etib, tuman iqtisodiyotining

TADDIQOT QILINAYOTGAN XUDUD



1-rasm Tadqiqot qilinayotgan hudud

Mazkur tadqiqotda Qo‘shko‘pir tumani misolida qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan barqaror foydalanish masalalari, sug‘oriladigan yerlar maydonini kengaytirish istiqbollari hamda

negizini belgilab beradi. Ushbu toifadagi yerlarning 28 535 gektari bevosita sug‘oriladigan maydonlar hisoblanadi. Tadqiqot davomida tumanda 4 050 gektar zaxira yerlari hamda 766 gektar bo‘z yerlar mavjudligi aniqlandi. Mavjud bo‘z yerlarning meliorativ holati va suv ta‘minoti darajasi o‘rganilganda, ularning katta qismi ilgari foydalanishda bo‘lgan, biroq turli sabablarga ko‘ra (suv tanqisligi, sho‘rlanish) qishloq xo‘jaligi aylanmasidan chiqib ketgan maydonlar ekanligi ma‘lum bo‘ldi.

1-jadval

Qo‘shko‘pir tumanidagi o‘zlashtirish imkoniyati mavjud yerlar to‘g‘risida ma‘lumot

T/r	Hududlar va yerdan foydalanuvchilarning nomi	Jami yerlar	Quyidagi yer hisobiga				
			Haydaladigan lalmi yerlar	Bo‘z yerlar	Meliorativ qurilish holatidagi yerlar	Yaylovlar	Boshqa yerlar
1	2	3	4	5	6	7	8
1	Az Zamaxshariy	199,4		199,4			
2	A.Qurbanov	68,3		68,3			
3	Guliston	1,4		1,4			
4	M.Raximov	68,1		68,1			
5	Xorazm	4,2		4,2			
6	Toshkent	11,7		11,7			
7	O‘zbekiston	5,0		5,0			
8	Nezaxas	56,2		56,2			
9	O.Jumaniyozov	88,6		88,6			
10	I.Bekmanov	6,0		6,0			
11	Axunboboyev	15,3		15,3			
12	Ittifoq	92,9		92,9			
13	Obod	36,7		36,7			
14	I.Ibragimov	112,5		112,5			
14	Tuman bo‘yicha jami:	766		766			

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Qo‘shko‘pir tumanida jami 766,1 gektar maydonni qishloq xo‘jaligi aylanmasiga qayta kiritish imkoniyati mavjud. Ushbu maydonlarning barchasi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlarning bo‘z yerlar turiga kiradi. Hududlar kesimida tahlil qilindagina, eng katta o‘zlashtirish salohiyati Az Zamaxshariy (199,4 ga), I. Ibragimov (112,5 ga) va Ittifoq (92,9 ga) hududlariga to‘g‘ri kelishi aniqlangan. Ilmiy asoslar va barqaror foydalanish istiqbollari: Yer resurslaridan barqaror foydalanish strategiyasi nafaqat yangi maydonlarni o‘zlashtirish, balki ularning meliorativ holatini saqlash va tuproq unumdorligini oshirishni talab etadi.

2-jadvalda Qo‘shko‘pir tumanida 2025-yildan 2040-yilgacha bo‘lgan davrda jami 766,1 gektar bo‘z yerlarni bosqichma-bosqich o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligi aylanmasiga kiritishning strategik ko‘rsatkichlar prognozi aks etgan.

2025–2030-yillar (Birinchi bosqich): Bu davrda eng katta hajmdagi — 310 gektar maydonni o‘zlashtirish prognoz qilingan. Bu bosqichda asosan I. Ibragimov (112,5 ga), Ittifoq (92,9 ga), M. Raximov (68,1 ga) va Obod (36,7 ga) hududlaridagi bo‘z yerlar qishloq xo‘jaligi muomalasiga kiritilsa, bu tuman aholisining o‘sib borishi bilan bog‘liq oziq-ovqat ehtiyojlarini qoplashdagi dastlabki muhim qadam hisoblanadi.

2030–2035-yillar (Ikkinchi bosqich): Mazkur o‘rta muddatli davrda 230 gektar maydonni o‘zlashtirish prognoz qilingan. Bunda asosiy ulush O. Jumaniyozov (88,6 ga) va A. Qurbanov (68,3 ga) hududlariga to‘g‘ri keladi.

2035–2040-yillar (Uchinchi bosqich): Yakuniy bosqichda 226 gektar yer o‘zlashtirilishi prognoz qilingan. E‘tiborli jihati, tumandagi eng yirik o‘zlashtirish zaxirasi hisoblangan Az Zamaxshariy (199,4 ga) hududi aynan shu davrda to‘liq

aylanmaga kiritilishi prognoz qilingan.

2-jadval

Qo‘shko‘pir tumanida 2025–2040-yillarda bo‘z yerlarni o‘zlashtirish va qishloq xo‘jaligi aylanmasiga kiritishning bosqichma-bosqich prognozi taklifi

T/r	Hudud va yerdan foydalanuvchi	2025–2030	2030–2035	2035–2040
1	Az Zamaxshariy			199,4
2	A. Qurbanov		68,3	
3	Guliston		1,4	
4	M. Raximov	68,1		
5	Xorazm		4,2	
6	Toshkent			11,7
7	O‘zbekiston		5,0	
8	Nezaxas		56,2	
9	O. Jumaniyozov		88,6	
10	I. Bekmanov		6,0	
11	Axunboboev			15,3
12	Ittifoq	92,9		
13	Obod	36,7		
14	I. Ibragimov	112,5		
	Jami	310	230	226

Xulosa. Qo‘shko‘pir tumanini allyuvial yotqizilardan tashkil topgan bo‘lib, sizot suvlarining yaqinligi (1–2 metr) va tuproqning o‘rtacha bonitet balli 55 ekanligi e‘tiborga loyiqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bo‘z yerlarni o‘zlashtirish jarayonida quyidagi ilmiy-texnik tadbirlarni amalga oshirish zarur:

Meliorativ infratuzilmani tiklash: Suv ta‘minoti og‘ir bo‘lgan hududlarda irrigatsiya tarmoqlarini rekonstruksiya qilish va nasos agregatlari yordamida suv yetkazib berish tizimini yo‘lga qo‘yish.

Suv tejovchi texnologiyalar: Yangi o‘zlashtirilayotgan maydonlarda an‘anaviy sug‘orish o‘rniga tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish usullarini joriy etish suv sarfini 20-25% gacha qisqartirish imkonini beradi.

Sho‘rlanishga qarshi kurash: Tuproqning mexanik tarkibi va sho‘rlanish darajasini hisobga olgan holda, kollektor-zovur tarmoqlarini tozalash va kapital tekislash ishlarini olib borish.

Ushbu yerlarni o‘zlashtirish tumanda aholi sonining o‘sishi natijasida yuzaga keladigan oziq-ovqat ehtiyojini qondirish hamda urbanizatsiya (masalan, “Yangi O‘zbekiston” massivlari) tufayli qisqarayotgan qishloq xo‘jaligi yerlari o‘rnini qoplashda strategik ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR

1. FAO. Sustainable Land Management Guidelines.
2. Burrough P.A., McDonnell R.A. Principles of Geographical Information Systems.
3. O‘zbekiston Respublikasi yer fondi bo‘yicha statistik ma‘lumotlar.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. (2022). Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar va ekin maydonlarida monitoring ishlarini amalga oshirish to‘g‘risidagi Nizom, 22-son qaror. Toshkent.
5. O‘zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi. (2021). O‘zbekiston Respublikasi yer munosabatlari to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlar. Toshkent: Adolat.
6. R.A.Turayev, B.N.Inamov.O.U.Davronov S.Z.Safayev A.A.Abdusalomov. Sug‘oriladigan yerlarni xatlovdan o‘tkazish va geoaxborot bazasini yaratish-uslubiy qo‘llanma. Toshkent, 2024.
7. Abdullayeva M.T. Qishloq xo‘jalik ekinlari monitoringini tashkil etish. Monografiya. Toshkent, 2024.
8. Xojiyev K.M. Yer hisobini yurutish uslubiyatini takomillashtirish. Monografiya. Toshkent, 2024.